

**ADABIY TANQID TARIXI: ANTOLOGIK YONDASHUV VA  
TARAQQIYOT BOSQICHLARI**

*Dehqonova Maxsuma Shavkatovna*

*FDU adabiyotshunoslik*

*kafedra dotsenti, f.f.b.f.d (PhD)*

*Qoraboyeva Shahrizoda*

*Farg'ona davlat universiteti*

*filologiya fakulteti 4-bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** Mazkur tadqiqot ishi adabiy tanqidning shakllanish va rivojlanish tarixini antologik nuqtayi nazardan tahlil qilishga bag'ishlanadi. Maqolada Sharq mumtoz tazkiranavislik an'alaridan tortib, jadidlar davri va mustaqillik yillari tanqidchiligigacha bo'lgan masofadagi estetik tafakkur evolyutsiyasi yoritilgan. Tadqiqot jarayonida tanqidiy antologiyalarning adabiy jarayonni tizimlashtirishdagi o'rni ilmiy asoslab berilgan.

**Kalit so'zlar:** adabiy tanqid, antologiya, tazkira, Alisher Navoiy, jadidchilik, Fitrat, sotsrealizm, estetik tahlil, munaqqid mahorati.

**Аннотация:** Данная исследовательская работа посвящена анализу истории становления и развития литературной критики с антологической точки зрения. В статье освещается эволюция эстетической мысли на протяжении периода от восточных классических традиций тазкира до критики периода джадидизма и лет независимости. В процессе исследования научно обоснована роль критических антологий в систематизации литературного процесса.

**Ключевые слова:** литературная критика, антология, тазкира, Алишер Навои, джадидизм, Фитрат, соцреализм, эстетический анализ, мастерство критика.

**Annotation:** This research paper is devoted to the analysis of the history of the formation and development of literary criticism from an anthological point of view. The article covers the evolution of aesthetic thought ranging from Eastern classical tazkira traditions to the criticism of the Jadidism period and the years of independence. In the course of the research, the role of critical anthologies in the systematization of the literary process is scientifically grounded.

**Keywords:** literary criticism, anthology, tazkira, Alisher Navoiy, Jadidism, Fitrat, socialist realism, aesthetic analysis, critic's skill.

Adabiy tanqid badiiy adabiyotning jamiyatdagi o'rni, uning estetik va ijtimoiy mohiyatini belgilovchi muhim jarayon sifatida namoyon bo'ladi. U o'z tabiatiga ko'ra baholash, saralash va umumlashtirish tamoyillariga asoslanadi. Shu bois adabiy tanqid

tarixini antologik yondashuv asosida o'rganish ilmiy jihatdan samarali usullardan biri hisoblanadi. Antologik yondashuv turli davrlarga mansub tanqidiy qarashlarni yagona tizimga solib, milliy estetik tafakkurning bosqichma-bosqich rivojlanishini ko'rsatib beradi. Zamonaviy o'zbek adabiyotshunosligi oldida turgan dolzarb vazifalardan biri ham aynan adabiy tanqid tarixini tizimlashtirish, uning metodologik asoslarini qayta ko'rib chiqish va yangi ilmiy paradigmalarga mos ravishda talqin etishdan iboratdir.

O'zbek adabiy tanqidining dastlabki ildizlari Sharq mumtoz adabiyoti bag'rida shakllangan tazkiranavislik an'analari bilan chambarchas bog'liq. Bu davrda tanqid mustaqil fan sifatida ajralib chiqmagan bo'lsa-da, u badiiy asar va ijodkor shaxsini baholash jarayonida muhim o'rin egallagan. Xususan, Alisher Navoiyning "Majolisun-nafois" asari turkiy tildagi ilk mukammal tanqidiy-antologik manba sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Unda yuzlab shoirlarning ijodi nafaqat biografik ma'lumotlar orqali, balki estetik mezonlar asosida ham tahlil qilinadi. Navoiy ijodkorning badiiy mahoratini baholashda tilning ravonligi, mazmunning teranligi, badiiy vositalarning o'rinli qo'llanishi kabi mezonlarga tayanadi.

XX asr boshlarida yuzaga kelgan jadidchilik harakati adabiy tanqid rivojida yangi bosqichni boshlab berdi. Bu davrda tanqid ijtimoiy ongni uyg'otish vositasi sifatida talqin qilindi. Jadid munaqqidlari adabiyotni jamiyat taraqqiyoti bilan bevosita bog'lab, uni ma'rifiy va tarbiyaviy kuch sifatida ko'rdilar. Abdurauf Fitratning "Adabiyot qoidalari" asari o'zbek adabiy tanqidining nazariy asoslarini shakllantirishda muhim rol o'ynadi. Jadid tanqidchiligi vakillari asarni faqat estetik hodisa sifatida emas, balki ijtimoiy hayotning in'ikosi sifatida tahlil qildilar.

Sho'ro davriga kelib adabiy tanqid mafkuraviy tizim ta'siriga tushib qoldi. Bu davrda sotsialistik realizm yagona metod sifatida e'tirof etilib, barcha badiiy asarlar shu mezon asosida baholandi. Tanqidida "partiyaviylik", "sinfyilik" kabi tushunchalar ustuvorlik qildi. Shunga qaramay, ayrim munaqqidlar badiiylik mezonlarini saqlab qolishga intildilar. Xususan, Ozod Sharafiddinovning faoliyati o'zbek tanqidchiligida muhim burilish yasadi. Mustaqillik yillarida adabiy tanqid yangi bosqichga ko'tarildi. Mafkuraviy cheklovlarning bekor qilinishi natijasida munaqqidlar erkin fikrlash imkoniyatiga ega bo'ldilar. Endilikda adabiy asarlar jahon adabiyotshunosligidagi zamonaviy metodlar — strukturalizm, postmodernizm, germenevtika va psixoanaliz asosida tahlil qilina boshlandi. Bu esa o'zbek adabiy tanqidining metodologik bazasini sezilarli darajada kengaytirdi. Zamonaviy antologiyalar esa o'zbek tanqidchiligining eng sara namunalarini jamlab, uni tizimli ravishda o'rganish imkonini bermoqda. Ibrohim G'afurov, Umarali Normatov, Qozoqboy Yo'ldoshev kabi olimlarning ishlari adabiy tanqidni yangi bosqichga olib chiqishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, adabiy tanqid tarixi o'zbek xalqi estetik tafakkurining rivojlanish jarayonini aks ettiruvchi muhim manba hisoblanadi. Antologik yondashuv esa ushbu jarayonni tizimli ravishda o'rganish, turli davrlar

o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni aniqlash va umumlashtirish imkonini beradi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, adabiy tanqid rivojisiz badiiy adabiyotning taraqqiyoti ham to'laonli bo'la olmaydi. Shu bois adabiy tanqidning tarixiy merosini o'rganish, uni yosh avlodga yetkazish va zamonaviy ilmiy asosda rivojlantirish dolzarb ilmiy vazifa bo'lib qolmoqda. Antologiyalar esa bu jarayonda o'tmish va bugun o'rtasida mustahkam ko'prik vazifasini bajaradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Alisher Navoiy. Majolisun-nafois. – Toshkent: Fan, 2001.
2. Fitrat A. Adabiyot qoidalari. – Toshkent: O'qituvchi, 1995.
3. Nazarov B., Rasulov A., Ahmedova Sh. O'zbek adabiy tanqidchiligi tarixi. – Toshkent: O'qituvchi, 2012.
4. Sharafiddinov O. Ijodni anglash baxti. – Toshkent: Sharq, 2004.
5. Normatov U. Qahorni anglash. – Toshkent: Universitet, 2002.
6. O'zbek adabiy tanqidi (Antologiya). – Toshkent: Turon-Iqbol, 2006.